Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tili derivatsion tizimida affiks sinonimiyasining struktur-semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida sinonim affikslarni korpus lingvistikasi materiallari asosida o‘rganish, ularning qo‘llanish chastotasi va uslubiy taqsimotini statistik tahlil qilish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1989, 168-бет.

(2). Нурмонов А., Маҳмудов Н., Собиров А., Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Илм зиё”, 2013, 576-бет.

(3). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Тошкент, “Университет”, 2006, 47-бет.

(4). Маҳмудов Н. Тил. Тошкент, “Mumtoz so‘z”, 2013, 192-бет.

(5). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 300-бет.

(6). Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. Морфемика ва сўз ясалиши. Тошкент, “Fan”, 2000, 224-бет.

(7). Бўронов Ж. Ўзбек ва бошқа туркий тиллар қиёсий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1973, 284-бет.

(8). Booij G. The Grammar of Words: An Introduction to Morphology. 3rd ed. 9. Oxford: Oxford University Press, 2012, 320 p.

(9). Lieber R. Introducing Morphology. 2nd ed. Cambridge, Cambridge University Press, 2016, 388 p.

(10). Katamba F. Morphology. London, Palgrave Macmillan, 1993, 360 p.

(11). Bybee J. Language, Usage and Cognition. Cambridge, Cambridge University Press, 2010, 278 p.

(12). Matthews P.H. Morphology. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 1991, 251 p.

(13). Aronoff M., Fudeman K. What is Morphology? 2nd ed. Oxford, Wiley-Blackwell, 2011, 240 p.

(14). Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed. Oxford, Blackwell Publishing, 2008,529 p.

Raximova Umida Soliyevna (Urganch RANCH Texnologiya universiteti dotsenti, PhD;
e-mail: umida1976@list.ru)

XX–XXI ASR ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ONA OBRAZINI O‘RGANISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Annotatsiya. *Maqolada XX–XXI asr zamonaviy adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Ona obrazi ijtimoiy, madaniy, psixologik va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan murakkab badiiy kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamonaviy ingliz va amerika adabiyotida ona obrazining tipologik xususiyatlari, poetik funksiyalari, gender va identifikatsiya muammolari yoritilgan. Toni Morrison, Doroti Ellison, Doroti Uest, Sharlotta Perkins Gilman va Edit Uorton asarlari misolida ona obrazining tragik, ramziy, psixologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ona obrazi, onalik konsepsiyasi, poetika, gender, badiiy tipologiya, zamonaviy adabiyot, ingliz-amerika adabiyoti.*

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ОБРАЗА МАТЕРИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ XX–XXI ВЕКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются актуальные проблемы изучения образа матери в современном литературоведении XX–XXI веков. Образ матери исследуется как сложная художественная категория, обладающая социальным, культурным, психологическим и философским содержанием. В исследовании раскрываются типологические особенности, поэтические функции образа матери, а также проблемы гендерной идентичности в современной английской и американской литературе. На примере произведений Тони Моррисон, Дороти Эллисон, Дороти Уэст, Шарлотты Перкинс Гилман и Эдит Уортон анализируются трагические, символические, психологические и социальные аспекты образа матери.*

Ключевые слова: *образ матери, концепция материнства, поэтика, гендер, художественная типология, современная литература, англо-американская литература.*

ACTUAL PROBLEMS OF THE STUDY OF IMAGE MATTER AND LITERATURE OF XX–XXI CENTURIES

Annotation. *The article examines the актуал issues of studying the image of the mother in modern literary studies of the 20th–21st centuries. The image of the mother is analyzed as a complex artistic category with social, cultural, psychological, and philosophical significance. The study explores the typological features, poetic functions, and gender identity issues related to the representation of the mother figure in contemporary English and American literature. Based on the works of Toni Morrison, Dorothy*

Allison, Dorothy West, Charlotte Perkins Gilman, and Edith Wharton, the article analyzes the tragic, symbolic, psychological, and social aspects of the mother image.

Keywords: *mother image, concept of motherhood, poetics, gender, literary typology, modern literature, English-American literature.*

Kirish. Ona obrazi adabiyotda nafaqat badiiy personaj, balki keng qamrovli ijtimoiy, madaniy va falsafiy mazmunga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. U inson hayotining boshlanishi, ma’naviy meros, madaniy davomiylik va ijtimoiy munosabatlarning markaziy timsoli sifatida talqin etiladi. Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida ona obrazi turli yondashuvlar asosida o‘rganilgani aniqlandi. Xususan, onalikning ijtimoiy va psixologik mohiyati, ona-bola munosabatlarining shaxs rivojlanishiga ta’siri, ona obrazining gender munosabatlari tizimidagi o‘rni hamda uning patriarxal jamiyatdagi funksiyalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, ona obrazi “istak manbayi”, “madaniy xotira tashuvchisi”, “axloqiy tartib saqlovchi” kabi turli konseptual nuqtayi nazarlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijasida ona obrazining turli tipologik ko‘rinishlari–ideallashtirilgan ona, mavjud bo‘lmagan yoki zaif ona, surrogat ona kabi shakllarda namoyon bo‘lishi aniqlandi. Bu esa adabiyotda onalik tushunchasining bir yoqlama emas, balki ziddiyatli va dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, XIX–XX asr adabiyotida ona obrazi orqali gender tengsizlik, ayol shaxsiyati muammosi, ijtimoiy cheklovlar va patriarxal nazorat kabi dolzarb masalalar badiiy ifoda topgan.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona obrazi nafaqat tarbiyachi, balki jamiyatdagi mavjud ijtimoiy va madaniy me’yorlarni qayta ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida ham namoyon bo‘ladi. Biroq ayrim asarlarda onalik ayolning ichki kuchi, ijtimoiy ta’sir doirasi va shaxsiy erkinlikka intilishining manbayi sifatida ham talqin qilinadi. Bu esa ona obrazining faqat an’anaviy rollar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy o‘zgarishlar jarayonida transformatsiyaga uchrashini anglatadi. Jahon adabiyotida ona obrazini o‘rganish orqali inson shaxsiyati, oilaviy munosabatlar, gender siyosat va madaniy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi chuqur ochib beriladi. Ona obrazi adabiyotda markaziy badiiy kategoriya sifatida nafaqat individual tajribani, balki butun jamiyatning ma’naviy va madaniy taraqqiyotini aks ettiradi. Shu jihatdan, mazkur bobda ko‘rib chiqilgan xorijiy tadqiqotlar dissertatsiya mavzusining nazariy-metodologik asosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Osiyo tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan zamonaviy adabiyotshunoslikda ona obrazi faqat oilaviy rol doirasida emas, balki ijtimoiy, madaniy va gender identifikatsiyasini shakllantiruvchi murakkab badiiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Ona obrazining gender va ijtimoiy shaxsiyat bilan bog‘liqligi markaziy masala sifatida tadqiq etilgan. Xususan, Yalda Yusufi [1;269-b.], Xanan Alazaz [2; 259-b.] va Senem Ustun Kaya [3;872–887-b.] tadqiqotlarida onalik ayol shaxsiyatining shakllanish jarayonida muhim omil sifatida qaralib, uning ijtimoiy bosimlar, madaniy qadriyatlar va individual tajriba bilan bog‘liqligi yoritilgan. Ona-qiz munosabatlari orqali madaniy va gender normalarining uzatilishi muhim ilmiy masala sifatida tahlil qilingan. Bu munosabatlar orqali avlodlararo tajriba, ijtimoiy rollar va qadriyatlarning avloddan avloddga o‘tishi, shu bilan birga, ziddiyat va shaxsiyat muammolari ham namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan.

An’anaviy “ideal ona” modeli va uning tanqidiy qayta ko‘rib chiqilishi zamonaviy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ko‘plab tadqiqotlarda onalikning fidoyilik va o‘zini qurbon qilishga asoslangan stereotip modeli tanqid qilinib, uning o‘rniga murakkab, ziddiyatli va dinamik ona obrazlari tahlil qilingan. Ona obrazining mavjud emasligi va uning badiiy funksiyasi alohida e’tibor markazida bo‘lgan. Shveta K.Kapur va boshqa tadqiqotchilar ishlarida onasizlik motivi qahramonning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy muammolar va tarixiy o‘zgarishlarni ifodalovchi muhim vosita sifatida talqin qilingan [4;875-b.]. Bundan tashqari, onalikning psixologik va subyektiv jihatlari, jumladan, “onalik sub-yektivligi”, ichki ziddiyatlar va shaxsiy tanlov muammolari tahlil qilingan. Bu yondashuv onalikni bir ma’noli ijobiy kategoriya sifatida emas, balki murakkab inson tajribasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Mazkur maqolada patriarxal jamiyat va onalik munosabati dolzarb muammolardan biri sifatida yoritilgan. Tadqiqotlar ona obrazi orqali gender tengsizlik, ijtimoiy nazorat va ayolning cheklangan imkoniyatlari masalalarini ochib bergan. Shuningdek, qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvi asosida G‘arb va Sharq adabiyotidagi ona obrazi farqlari tahlil qilingan. G‘arb adabiyotida ona obrazi ko‘proq individuallik va shaxsiy mustaqillik bilan bog‘lansa, Sharq adabiyotida u an’anaviy qadriyatlar va oilaviy mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Osiyo tadqiqotchilari ishlarida ona obrazi ko‘p qirrali, dinamik va madaniy jihatdan shartlangan badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqotlar ona obrazini nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-

falsafiy va madaniy fenomen sifatida anglash imkonini kengaytiradi hamda zamonaviy adabiyotshunoslikda onalik konsepsiyasini chuqurroq tahlil qilish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX–XXI asr ingliz va amerika adabiyotida ona obrazi an'anaviy ideallashtirilgan tasvir doirasidan chiqib, murakkab, ko'p qatlamli va estetik jihatdan boy badiiy struktura sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ona obrazini o'rganish faqat ijtimoiy yoki gender tahlil bilan cheklanib qolmay, balki uning poetik funksiyasi, badiiy tipologiyasi, simvolik va mifopoetik xususiyatlari hamda narativ tizimdagi o'rnini aniqlashni talab etadi.

Doroti Ellisonning "*Bastard Out of Carolina*", Toni Morrisonning "*Beloved*" va "*Song of Solomon*", Doroti Uestning "*The Wedding*", shuningdek, Sharlotte Perkins Gilmanning "*The Yellow Wall-Paper*" va "*The Giant Wisteria*" hamda Edit Uartonning "*The House of Mirth*" asarlarida ona obrazi poetika nuqtayi nazaridan yangi mazmun va xususiyat kasb etadi.[1]

Doroti Ellisonning "*Bastard Out of Carolina*" asaridagi Anni But obrazi an'anaviy "ideal ona" modeliga zid ravishda ziddiyatli va tragik-poetik konstruksiya sifatida shakllanadi [5;235-b.]. Bir vaqtning o'zida mehribonlik va zaiflik, himoya va bequvvatlik xususiyatlarini mujassam etgan ona obrazi dramatik ziddiyatni kuchaytiruvchi badiiy omilga aylanadi. Bu asarda ona obrazi tragik paradoks sifatida talqin qilinib, bir vaqtning o'zida, ham muhofaza qiluvchi, ham zarar yetkazuvchi badiiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Toni Morrisonning "*Beloved*"da Seze obrazi mifopoetik va arxetipik darajaga ko'tariladi. Ona farzandini qullik va zo'ravonlik muhitidan asrash maqsadida uni o'ldirishga qaror qilishi orqali onalikni ikki qutbli badiiy kategoriya – hayot va o'limni birlashtiruvchi fenomen sifatida namoyon qiladi [6;478-b.]. "*Song of Solomon*"da esa Rut Foster orqali ona obrazi avlodiy xotira, madaniy meros va shaxsiy identifykatsiya manbai sifatida talqin qilinadi. Ushbu asarda ona obrazi "ko'rinmas narativ markaz" sifatida ishtirok etib, ma'no va g'oyalar tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [7;369-b.].

Doroti Uestning "*The Wedding*" asarida ona ijtimoiy-estetik funksiyani bajaruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi [8;453-b.]. U qahramonlarning hayotiy tanlovlari va taqdirini belgilashda ishtirok etadi va asardagi ijtimoiy strukturaning barqarorligini ta'minlovchi estetik omilga aylanadi.

Sharlotta Perkins Gilmanning "*The Yellow Wall-Paper*" asarida ona obrazi psixologiya va individual tajriba nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda psixikasi buzilgan ayol shaxsiyati orqali patriarxal jamiyatdagi onalik roli va uning chegaralari ochib beriladi [9;292-b.]. Ushbu obraz an'anaviy ona idealini rad etuvchi va ijtimoiy me'yorlarga norozilik bildiruvchi estetik fenomen sifatida talqin qilinishi mumkin. "*The Giant Wisteria*"da esa ona obrazi oilaviy va madaniy meros bilan bog'liq tarixi, qishloq va shahar muhitida ayolning shaxsiy identifikatsiyasini ochib beruvchi poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi [10;376-b.].

Edit Uortonning *"The House of Mirth"* romanida ona obrazi ijtimoiy va madaniy kontekstda tanqidiy funksiyani bajaradi. Lili Bartning hayotiy tajribasi orqali ona va oila bilan bog'liq ijtimoiy me'yorlar, an'anaviy gender rollari hamda shaxsiy va ijtimoiy tanlovlar namoyon qilinadi [11;364-b.]. Bu asarda ona obrazi narativning markaziy harakatchisi bo'lmasa-da, ijtimoiy struktura va personajlar taqdiriga ta'sir qiluvchi estetik omilga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishimizda ko'rib chiqilgan asarlarda ona obrazining poetikasi bir necha muhim jihatlarda namoyon bo'lishi aniqlandi. Avvalo, ona obrazi tragik va paradoksal tabiatga ega bo'lib, unda mehribonlik, himoya qilish istagi bilan bir qatorda, zaiflik va zarar yetkazuvchi holatlar ham uyg'unlashadi. Bu xususiyat Doroti Ellisonning "Bastard Out of Carolina", Toni Morrisonning "Beloved" va "Song of Solomon" asarlarida yaqqol ko'rinadi.

Shuningdek, ayrim asarlarda ona obrazi arxetipik va mifopoetik xususiyatlar kasb etib, universal insoniy ma'nolarni – hayot, qurbonlik, xotira va avlodlar davomiyligini ifodalaydi. Bu jihat, ayniqsa, Toni Morrisonning "Beloved" romanida Seze obrazi orqali namoyon bo'ladi.

Ona obrazining yana bir muhim poetik xususiyati, uning ko'rinmas narativ markaz sifatidagi vazifasidir. Ayrim asarlarda ona obrazi voqealar markazida bevosita ishtirok etmasa-da, asarning g'oyaviy mazmuni, qahramonlar taqdiri va ma'naviy izlanishlarini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanadi. Bu xususiyat Toni Morrisonning "Song of Solomon" va Doroti Uestning "The Wedding" asarlarida kuzatiladi.

---

[1] Allison, Dorothy. Bastard Out of Carolina. New York, Dutton, 1992. Morrison, Toni. Beloved. New York, Knopf, 1987. Song of Solomon. New York, Signet, 1977. West, Dorothy. The Wedding. New York, Doubleday, 1995. Gilman, Charlotte Perkins. "The Giant Wisteria." Crow, p. 387–392. "The Yellow Wall-Paper." Crow, p. 392–402; Wharton, Edith. The House of Mirth Second Norton Critical Edition. Edited by Elizabeth Ammons, 2nd ed., W.W.Norton & Company Inc., 2018.

XX–XXI asr adabiyotshunosligida ona obrazini o‘rganish natijasida mazkur obraz an’anaviy “mehribon va fidokor ona” modeli doirasidan chiqib, murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘layotgani aniqlandi. Zamonaviy adabiy jarayonda ona obrazi nafaqat oilaviy munosa-batlarni aks ettiruvchi vosita, balki shaxsiyat, madaniy xotira, ijtimoiy munosabatlar va gender muam-molarini ifodalovchi muhim estetik kategoriya vazifasini bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ona obraziga oid zamonaviy tadqiqotlarda asosiy e’tibor onalikning ijtimoiy va psixologik mohiyati, ona-bola munosabatlarining shaxs shakllanishidagi o‘rni, patriarxal me’yorlar ta’siri va ayol identikligi masalalariga qaratilgan. Biroq ona obrazini faqat gender yoki ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganish uning badiiy imkoniyatlarini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu bois mazkur tadqiqotda ona obrazi poetik kategoriya sifatida tahlil qilinib, uning sujet qurilishi, konflikt yaratish, ramziy ma’no yuklash va narativ tizimdagi funksiyalari ochib berildi.

Xulosa. Shunday qilib, ona obrazi zamonaviy adabiyotda oddiy personaj emas, balki inson, jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi ko‘p ma’noli badiiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Ona obrazining poetik xususiyatlarini o‘rganish adabiyotshunoslikda gender va ijtimoiy yondashuvlarni badiiy-estetik tahlil bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy adabiyotda onalik konsepsiyasining yangi ma’no qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). (Yalda Yousefi. Demythologizing Motherhood: A Comparative Study of the Maternal and Mother-Daughter Relationships in the Works of Contemporary British, North American, and Iranian Women Writers University of Sheffield, 2015, p. 269.

(2). Hanan A. Alazaz. From the Feminine to the Maternal: Maternal Subjectivities in Contemporary American Fiction Lancaster University, 2019, p. 259

(3). Üstün Kaya, Senem (2020). Melekler veya Şeytanlar: Dünya Edebiyatında Annelik Olgusu Üzerine Karşılaştırmalı Bir Analiz. Akademik Dil ve Edebiyat Dergisi, 4 (4), s. 872–887.

(4). Shweta K.Kapoor. “Analysing the significance of the absent mother in the Victorian-era literature through select works of Dickens”. International Research Journal of Management and Commerce. Volume 5, Issue 3, March 2018, p. 875.

(5). Allison Dorothy. Bastard Out of Carolina. New York, Dutton, 1992.

(6). Morrison Toni. Beloved. New York, Knopf, 1987.

(7). Morrison Toni. Song of Solomon. New York, Signet, 1977.

(8). West Dorothy. The Wedding. New York, Doubleday, 1995.

(9). Gilman Charlotte Perkins. “The Giant Wisteria.” Crow, p. 387–392.

(10). Gilman Charlotte Perkins. “The Yellow Wall-Paper.” Crow, p. 392–402.

(11). Wharton Edith. The House of Mirth Second Norton Critical Edition. Edited by Elizabeth Ammons, 2nd ed., W.W.Norton & Company Inc., 2018.

Axunov Muqimjon (ADCHTI “Ingliz tili nazariy aspektlari’ kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); E-mail:muqumjon.axunov@bk.ru; UDK:811.111+811.512.133’373.7)

KRIMINAL FRAZEOLOGIYA INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA: SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK VA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. *Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminal frazeologik birliklar qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilinadi. Kriminal frazeologiya jinoyat, ayb, jazo, tergov, yashirish, fosh etish, qonunbuzarlik va javobgarlikdan qochish kabi ijtimoiy-huquqiy konseptlarni obrazli, ekspressiv va madaniy belgilangan shaklda ifodalovchi frazeologik birliklar tizimi sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotda frazeologik identifikatsiya, semantik, komponent, struktur, kognitiv, lingvokulturologik, qiyosiy-chog‘ishtirma hamda diskursiv-pragmatik tahlil metodlari kompleks qo‘llanildi. Natijalar kriminal frazeologik birliklar beshta asosiy konseptual maydon atrofida tizimlashishini, ikki tilda obrazlar tizimining qisman mos kelishini va tarjimada to‘liq ekvivalent, qisman ekvivalent hamda analogik munosabatlar ustun ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, kriminal frazeologiya, frazeologik birlik, idiomatiklik, semantik yaxlitlik, lingvokulturologiya, kommunikativ-pragmatik vazifa, qiyosiy tahlil, tarjima ekvivalentligi.*

КРИМИНАЛЬНАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СЕМАНТИЧЕСКИЕ, ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ криминальных фразеологических единиц английского и узбекского языков. Криминальная фразеология определяется как система*